2. Ilm-fan va ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgan innovatsion texnologiyalarning dars jarayonida qo'llashga oid mashg'ulot turi. Bunda talabalarning kasbga yo'naltirilgan kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun zamonaviy kompyuter, mobil dasturlar, internet saytlari, internet dasturlaridan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotda chet tilni integratsiya qilgan holda dars o'tiladi.

3. **Nofilologik OTMlarda, ko'pincha, talabalarning mustaqil ishi sifatida bir xil darajada muhim amaliy mashg'ulot turi**dan foydalanadilar. Chet til darslarida o'qituvchi mustaqil ish tizimi uchun yetarli vaqt ajratishi kerak. Talabalarning o'zini-o'zi boshqarish, o'zaro nazorat va introspeksiyani rivojlantirishga qaratilgan dars turlarini tashkillashtirish darkor.

Xulosa. Talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik leksikani o'qitishda kasbiy chet tildagi muloqot ko'nikmalarini egallashga qaratilgan mashg'ulotlar, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo'llashga oid mashg'ulot turi, mustaqil amaliy mashg'ulotlar kabi o'quv mashg'ulot turlaridan foydalanishi yaxshi samara berishi aniqlandi. Terminologik kompotentlikni rivojlantirish va talabalarda kasbiy muloqot ko'nikmalarini takomillashtirishda task based learning(mashqlarga asoslanib o'rganish), content based learning (kontent asosida o'rganish) ta'lim turlari va kommunikativ yondashuvning o'ziga xos tamoyillarini mashg'ulot mazmuniga singdirilsa talabalarda kasbiy va terminologik kompetentlikni rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Brinton D.M. Epilogue to the myths: Best practices for teachers. Pronunciation myths: Applying Second Language Research to classroom teaching. L.Grant (Ed.). Ann Arbor, MI: University of Michigan Press, 2014, 243 p.

(2). Ellis, R. Task-based Language Learning and Teaching. Oxford University Press, 2003, 245 p.

(3). Krashen, S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press,1982, 345 p.

(4). Leaver Betty, Stryker Stephen. Content-Based Instruction for Foreign Language Classrooms. Foreign Language Annals. London, 2008, № 22, 269–75 p.

(5). Prabhu, N. Second Language Pedagogy. Oxford: Oxford University Press, 1987, 160 p.

(6). Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. New York, Cambridge University Press, 2001, 204 p.

(7). Schmitt, N. Vocabulary in Language Teaching. Cambridge University Press, 2000, 233 p.

(8). Spada N. Communicative Language Teaching. Current Status and Future Prospects. International Hand Book of English Language Teaching (Part I). New York, Springer, 2007, 277–288 p.

(9). Simpson A. Task-Based Learning. Cambridge. Cambridge University Press, 2004, 412 p.

(10). Willis D., Willis J. Doing Task-based Teaching. Oxford: Oxford University Press, 2013, 294 p.

Nizamova Umida Sandjarovna (Andijon davlat Texnika instituti "Tillar va gumanitar fanlar" kafedrasi katta oq'ituvchisi, PhD; umidanizamova18@gmail.com)

NOFILOLOGIK YONALISHI TALABALARIGA CHET TIL O'QITISHDA PRODUKTIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nofilologik ta'lim yonalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda produktiv yondashuvning afzalliklari respublika va xorij olimlar tomonidan o'rganilganligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada produktiv yondashuv orqali talabalarning ingliz tilini shaxsiy va kasbiy faoliyatlarida samarali foydalana olishi, hamkorlikda ishlash, kreativ fikrlash, muammoli va ijodiy mashqlarni qo'llanilishi amalda qo'llanilishi model yordamida keltirib berilgan. Joriy tadqiqotda produktiv usul kasbiy ta'limda bir nechta tillarning konstruktiv o'zaro ta'siri natijasida talabalarning muloqotini rivojlantirishi ma'lum bo'ldi.*

Kalit so'zlar: *produktiv yondashuv, kasbiy kompetensiya, reseptiv, reproduktiv, samarali usullar, gapirish va yozuv.*

ЗНАЧЕНИЕ ПРОДУКТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация. *В статье анализируются преимущества продуктивного подхода к обучению английскому языку студентов нефилологических специальностей, изученные отечественными и зарубежными учеными. В статье также представлена модель того, как студенты могут эффективно использовать английский язык в своей личной и профессиональной деятельности посредством продуктивного подхода, совместной работы, творческого мышления и использования упражнений по решению проблем и творческих упражнений. Текущее исследование показало, что продуктивный*

метод в профессиональном образовании развивает коммуникацию студентов посредством конструктивного взаимодействия нескольких языков.

Ключевые слова: *продуктивный подход, профессиональная компетентность, рецепты, воспроизводство, эффективные методы, говорить и писать.*

THE IMPORTANCE OF A PRODUCTIVE APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL SPECIALTIES

Annotation. *The article analyzes the advantages of a productive approach to teaching English to students of non-philological specialties, studied by domestic and foreign scientists. The article also presents a model of how students can effectively use English in their personal and professional activities through a productive approach, teamwork, creative thinking and the use of problem solving and creative exercises. The current study showed that the productive method in vocational education develops students' communication through constructive interaction of several languages.*

Key words: *productive approach, professional competence, recipes, reproduction, effective methods, speaking and writing.*

Kirish. Ingliz tilini o‘rganish jarayoni asta-sekin hamda progressiv jarayon bo‘lib, uni o‘rganishda bir qator qiyinchiliklarga duchor bo‘linadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonni amalga oshirishda muayyan ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur bo‘ladi. Bu ko‘nikmalar umumiy doirasiga ko‘ra, produktiv va reseptivga bo‘linadi. Qabul qilish qobiliyatlari o‘qish va tinglashni o‘z ichiga oladi. Chunki ular o‘quvchilarga darsliklarni, asarlarni, yoki hujjatlarni mazmunini tushunishga imkon beradi. Produktiv ko‘nikmalar gapirish va yozuvdan iborat bo‘lib, ular muhim ahamiyatga ega, chunki bunday ko‘nikmalar o‘quvchilarga og‘zaki taqdimotlar, yozma tadqiqotlar va boshqalar qatori hisobotlar kabi kommunikativ jihatlarda ishlashga imkon beradi. Shuning uchun ushbu ko‘nikmalarni to‘g‘ri rivojlantirish va o‘rganishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Chet tillarni o‘qitish tarixi davomida talabalarning til kompetensiyasi va layoqatini o‘stirish maqsadida ko‘plab metod va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu ishlab chiqilgan metodlarning barchasi ham muvaffaqiyatli bo‘lmagan. Adabiyotlarda, ko‘pincha, til o‘rgatishda qo‘llaniladigan usul va yondashuvlar turlicha farqlanadi. Chet tillarni o‘qitish bo‘yicha halqaro miqyosdagi mashhur mutaxassis, tilshunos, pedagog va ingliz tili o‘qituvchilari uchun ko‘plab kitoblar muallifi J.C. Richards va T.R.Rodjers “yondashuvni tilni o‘rgatish uchun asos sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan tamoyillar to‘plami sifatida ta’riflaydi” [1].

Ta’limni samarali rivojlantirish bilan shug‘ullangan xorij olimlarining ishlarini tahlil qilish ushbu sohada asosiy ilmiy natijalarni ko‘rsatdi. O‘qitishning mahsuldor usullari va uni umumta’lim maktablari va kollejlari tizimida tatbiq etish bo‘yicha tadqiqotlar (A.A.Vostrikov, O.I.Apasova va boshqalar) yaratilgan. Chet tillarni o‘rganish sohasida maktab va kollejlarda chet tillarini o‘qitishning samarali texnologiyalari va usullari (N.F.Koryakovseva, G.A.Belenkova, L.A.Lukyanova) samarali pedagogik fikrlashni shakllantirish (M.N.Goldin va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan [2].

Jumladan, chet tillarni o‘qitishda metodist olimlar N.I.Almazova va A.V.Rubsovalar tomonidan nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining chet tillarni egallash samaradorligini oshirish maqsadida produktiv yondashuvning quyidagi tarkibiy qismlari ishlab chiqildi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida samarali chet tili ta’limining falsafiy-pedagogik komponenti.
2. Mahsuldor chet tili ta’limining paradigma-maqsadli komponenti.
3. Chet tilini samarali o‘qitishning funksional va texnologik komponenti, shu jumladan, o‘rnatilgan o‘quv modullari tizimi.
4. Samarali yondashuv asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarini o‘z ichiga olgan kontent komponenti [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Chet tillaridan unumli foydalana olish oliy ta’lim talabalarining asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Biroq amalda, talabalarga chet tilni o‘qitish samarali professional muloqot uchun yetarli lingvistik va madaniyatlararo asosni ta’minlay olmaydi. Chet tillarni past darajada biladigan nofilologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tilini o‘rgatish qiyinroq. O‘qituvchilar va talabalar “barcha baynalmillashtirish faoliyatining markazida” bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarida ta’limning asosiy maqsadi sifatida kasbiy til kompetensiyasini samarali shakllantirish maqsadida chet tilidagi kasbiy tayyorgarlikni optimallashtirish muammosiga duch kelmoqdalar [4].

Olimlarning tadqiqotlari natijasida chet tilni samarali o‘rganishning innovatsion uslubiy modeli akademik soatlarni qisqartirish sharoitida talabalarni chet tilida samarali o‘qitishni ta’minlash vositasi sifatida qaraladi va bu bilan talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi degan xulo-

saga keladilar. Shu munosabat bilan, zamonaviy pedagogika fanida samarali ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqishni taklif etadi.


Ingliz tilini samarali o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar va interfaol metodlarni qo'llanilishi ta'lim oluvchini fanga bo'lgan qiziqish va e'tiborini oshiradi, idrokini rivojlantiradi. Talabalarni produktiv o'qitishga jalb qilish bir qancha loyihachilik ishlarini amalga oshirishni talab etadi. Bunday holat bo'lajak o'qituvchida motivatsion, intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarni tarkib toptirishni talab etadi.

Tahlil va natijalar. Produktiv ta'lim muammolari bilan shug'ullanadigan xorijiy olimlarning ilmiy va pedagogik adabiyotlari tahlil qilinganda, produktiv ta'lim – bu tarbiya, shaxsiy rivojlanish va talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini qamrab oladigan keng qamrovli ilmiy va pedagogik tizim sifatida taqdim etilgan [5].

Ta'limda produktiv yondashuvni rivojlantirishning ikkinchi yo'nalishi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tushunchasi bilan bog'liq. Bu yondashuv o'rta va oliy ta'limda kasbga yo'naltirilgan ta'lim shaklida AQSH va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, o'rta ta'lim va oliy ta'limni uzviy bog'lab turadi. Bundan tashqari, bu talabalarning kelajakdagi faoliyatida yuksak marralarga erishishlari uchun muhim bo'lgan shaxsiy va kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish muammosini hal qilishga xizmat qiladi [6].

Respublikamiz mutaxassislarining ta'kidlashicha, o'zlashtirishning produktiv darajasi o'zlashtirilgan bilimlarning namunaviy masalalarini yechish uchun mustaqil ravishda o'zgartirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu tayyor namuna yoki qoida emas, balki o'quvchi o'zi tuzgan algoritm bo'yicha bajarilgan harakat. Odatda, bu natijani oldindan ko'rishda faraz qilish mumkin bo'lgan aniq masala shartlariga moslashtirilgan ma'lum qoidalar birikuvidir. Bu o'quvchining o'zlashtirgan ma'lumotini amaliy sohada ma'lum masalalarni yechish uchun qo'llay olishi va yangi subyektiv ma'lumotni olish bilan tavsiflanadi.

"Ijtimoiy gumanitar" soha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun produktiv usulni afzalliklari yoritilgan bo'lib, ularni quyidagi rasm yordamida ko'rishimiz mumkin. Chunki produktiv metodi orqali o'qitishda bir qancha muvaffaqqiyatlarga erishiladi (1.1-rasm).



Shuni ta'kidlash lozimki, reproduktiv usullardan butunlay voz kechish ham yaramaydi chunki aynan reproduktiv usullar tinglovchilarga kerakli ma'lumotlarni qabul qilishga va mulohaza yuritishga omil bo'lib xizmat ko'rsatadi. Buning natijasida produktiv yondashuvi yanada samaraliroq bo'lishiga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar, Xulosa qilib aytganda yuqorida tahlilga tortilgan o'quv adabiyotlarda produktiv o'qitish va izlanuvchan yondashuvi uzviy bog'liq bo'lib, ular asnosida, darslarni tashkil etilishi talabalarning tadqiqotchilik hamda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Chet til o'qitishda produktiv yondashuvga erishish uchun ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan maxsus ta'lim texnologiyalari va tegishli usullarni yangilash va rivojlantirish kerak bo'ladi. Chunki interfaol metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini

qo‘llash orqali talabalarning barcha ko‘nikmalarini rivojlanishi, hamkorlikda ishlashi, o‘z ustida mustaqil ish olib borishi va ijodiy faoliyatlari takomillashuviga imkon tug‘iladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Richards J.C., Rodgers T.R. Implementing the curriculum with Cambridge:A guide for school leaders, Approaches and Methods in Language Teaching, 2nd ed., New York, CUP, 2004, 244 p.

(2). Коряковцева Н.Ф. Основы организации изучения иностранного языка учащимися на базе развития продуктивной деятельности. Автореф. дис. ... док. пед. наук, Москва, 2003, 52 с.

(3). Гольдина М.Н. Формирование продуктивного педагогического мышления студента будущего учителя. Автореф. дис. канд. пед. наук, Самара, 2003, 25 с.

(4). Almazova N.I., Eremin Y.V., Rubtsova A.V. Productive linguodidactic technology as an innovative approach to the problem of foreign language training efficiency in high school. Russian linguistic bulletin. 2016, № 3, 50 – 54 p.

(5). Попова Н.В., Коган М.С., Вдовина Е.К. Предметно-языковое интегрированное обучения (CLIL) как методология актуализации междисциплинарных связей в техническом вузе. Вестник Тамбовского университета. Серия гуманитарные науки, № 173, Тамбовск, 2018, 29–37 с.

(6). Aitov V.F., Aitova V.M. Ways of problematization in project approach. Materials of XI All-Russian scientific-practical conference with international participation ‘Foreign languages learning: actual issues and perspectives’. Ufa-Saint-Petersburg-Aktobe, 2017, 44–50 p.

Juginisova Juldiz Imnixashimovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Informatika o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi; jjuginisova1@gmail.com),
Asanova Uldawlet Sagindikovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Informatika o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi; ul_daulet@mail.ru),
Saxanova Liza Jamixatovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Informatika o‘qitish metodikasi” kafedrasi assistent o‘qituvchisi; sahanovaliza722@gmail.com)

MASOFAVIY O‘QITISHNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Annotatsiya. *Mazkur maqola masofaviy o‘qitishni tashkil etish va boshqarishning samarali usullarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada masofaviy o‘qitishning asosiy tamoyillari, boshqaruv tizimi va texnologik infratuzilmaning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy va milliy tajriba asosida masofaviy ta’limning muvaffaqiyatli tashkil etilishi va boshqarilishi uchun zarur sharoitlar, o‘qituvchilar va talabalar uchun samarali interaktiv platformalar hamda ularni motivatsiya qilish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda masofaviy o‘qitishdagi asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari, shuningdek, ta’lim jarayonining sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Maqola ta’lim tizimida masofaviy o‘qitishning samarali joriy etilishi uchun tavsiyalarni ishlab chiqadi. Ushbu tadqiqot ta’lim tizimi mutaxassislariga, o‘qituvchilarga va ta’lim jarayonini raqamlashtirishga qiziqqanlarga foydali ma’lumotlar taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *masofaviy o‘qitish, ta’lim boshqaruvi, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim, pedagogik tamoyillar, ta’lim sifatini baholash, o‘quv jarayonini rejalashtirish, motivatsiya, ta’lim innovatsiyalari, raqamli kompetensiyalar.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ИМ

Аннотация*. Данная статья посвящена анализу эффективных методов организации и управления дистанционным обучением. В статье рассматриваются основные принципы дистанционного обучения, роль системы управления и технологической инфраструктуры. Также проанализированы необходимые условия для успешной организации и управления дистанционным обучением на основе зарубежного и национального опыта, эффективные интерактивные платформы для преподавателей и студентов, а также методы их мотивации. В исследовании рассматриваются основные проблемы дистанционного обучения и пути их решения, а также принципы управления, необходимые для повышения качества образовательного процесса. Статья разрабатывает рекомендации по эффективному внедрению дистанционного обучения в системе образования. Данное исследование предоставляет полезную информацию для специалистов системы образования, преподавателей и тех, кто интересуется цифровизацией образовательного процесса.*

Ключевые слова: *дистанционное обучение, управление образованием, цифровые технологии, интерактивное обучение, педагогические принципы, оценка качества образования, планирование учебного процесса, мотивация, образовательные инновации, цифровые компетенции.*